



O'ZBEK TILI TERMINLARI PRAGMATIKASI

Suyunov Baxodir Turdievich

Filologiya fanlari doktori (DSc), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,

Tel: +998 (97) 759-66-00

bahodirsuyunov427@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17376988>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilidagi terminlardan to'g'ri foydalanish hamda ularni qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

Muallif mazkur mavzuni yoritishda o'zbek tili va rus tilidagi ilmiy manbalardan maqsadli foydalanib, termin, so'z, atamalarning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama atroflicha yoritib bergan. O'rni bilan ayni tushuncha va hodisalarni o'zaro farqlovchi misollar va dalillarga murojaat qilib, tegishli ilmiy xulosalar chiqargan.

Dunyo tillarida, jumladan o'zbek tilida ham terminlardan to'g'ri foydalanish, ularni tizimlashtirish va pragmatikasi bilan bog'liq masalalar bu borada muayyan ilmiy izlanishlar olib borishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ayni maqola bugungi kunda dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: leksema, termin, terminologiya, sistema, komponent, terminelement, semantika, morfema, monosemantika, ekvivalent, ekspressiv, konnotatsiya.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tabiiy ravishda, avvalo, o'zbek tili leksikasida o'z aksini topmoqda. Bu esa, ayni paytda, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yangi-yangi so'z, tushuncha va terminlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, o'zbek tili terminlari tizimini yanada teranroq tadqiq etish, xususan, terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda chuqurroq o'rganish hozirda muhim va jiddiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Terminlarni tadqiq etishda, birinchi navbatda, uning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratish kerak. Chunki termin, dastavval, sema (ma'no)lariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Terminning aniqligi, bir ma'noliligi va ilmiyligi, uni umumiste'moldagi so'z va atamalardan farqlab turadi.

Biror fan yoki sohaga oid termin shu fanning mavjudligi, yashash quroli bo'lishi bilan birgalikda, til sistemasining, terminologiyaning eng asosiy va eng muhim birliklaridan hisoblanadi. Shu bois, tilshunoslikda termin va uni qo'llash masalasi alohida ahamiyatga ega.

Termin va uning muhim belgi-xususiyatlari haqida fikr yuritilib, ta'rif berilar ekan, bizningcha, avvalo uning ilmiylik xususiyatini qayd etish va ayni xususiyatning dominant ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki termin, dastavval, ilmiylik xususiyati, ya'ni semasiga ko'ra ajralib turadi. Terminning qolgan barcha xususiyatlari: aniqligi, bir ma'noliligi, emotsionallikdan xoli ekanligi, qo'llanish qamrovining torligi, chegaralanganligi kabilar uning ilmiylik mohiyatidan, tushunchasidan kelib chiqadi.

O'zbek tilida so'z, atama va termin tushunchalari mavjud bo'lib, ularni ma'no hamda vazifalariga ko'ra o'zaro farqlash lozim. Ammo so'z, atama va terminlar aralash holda, ya'ni birining o'rniga ikkinchisi ishlatilaveradi. Natijada, tabiiy ravishda, tilimizda g'alizlik va muammolar kelib chiqadi. Hatto, "termin", "terminologiya" kabilar "atama", "atamashunoslik" leksemalari bilan almashtirib qo'llaniladigan bo'ldi, "atama", "atamashunoslik" kabi tushunchalarning umummilliy xarakterga ega ekanligi e'tiborga olinmaydi.

Chunki, "atama" deyilganda, onomastika (toponimiya, antroponimiya, oykonimiya)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Aslida, fanda avvaldan iste'molda bo'lgan "termin" va "terminologiya" leksemalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Terminning tuzilishi masalasi, ya'ni uning necha qismdan iborat bo'lishi, ixcham-noixchamligi ham bahstlab masalalardan bo'lib, bu hodisaning ijobiy yoki salbiy ekanligi haqida aniq bir fikr bildirilmagan [4:10]. Terminga nisbatan qo'yiladigan, lekin amalda har doim ham erishib bo'lmaydigan talablardan biri – uning ixcham bo'lishidir.

Rus tilshunos olimi D.Lotte ilmiy terminlardan foydalanish borasidagi muammolar xususida to'xtalib, quyidagicha fikrlarni bildirgan:

"Terminlarning ko'p ma'noliligi, terminlar sinonimiyasi, muayyan bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligi, terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi, termin talaffuzining noqulayligi, terminologiyaning haddan ziyod xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlanganligi, termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro tizimlilikning yetishmasligi kabilar barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan jiddiy kamchiliklar sanaladi" [2:18].

Keyingi yillarda qator mualliflar tomonidan terminga berilgan ta'riflarda uning muayyan fan sohasiga oid tushunchalarning ifodasi bo'lgan so'z va so'z birikmasi ekanligi ta'kidlangan [1:104]. Shunisi ham borki, terminga berilgan ta'riflarda termin sifatida ishlatilayotgan birikmalarning tarkibi, ya'ni uning necha qism (komponent)dan iborat bo'lishi haqida ma'lumotlar yo'q. Vaholanki, aksariyat hollarda ikki, uch qismdan iborat terminlar bilan bir qatorda, besh, olti, yetti, hatto undan ham ortiq komponentlardan tashkil topgan terminlarni uchratish mumkin. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda o'zbek kimyo terminologiyasida 94 foiz ikki qismli birikma termin bilan birga, besh, olti qismdan iborat terminlar ham bor ekanligi qayd etiladi [3:7-8].

Termin – kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoki birikmadir [7:44].

Haqiqatan ham shunday, chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llaniladi, aniqroq qilib ifodalasak, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar, ko'pincha, u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi. Masalan, iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida marketing, kartel, kliring, tovar oboroti, renta kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlarning ishlatilishi, tabiiy holdir.

Bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyot sohasining bir qator atamaları ham borki, ular mazkur til egalarining deyarli barcha nutqida bab-baravar ishlatilaveradi. Masalan, bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib sotar, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.

Qonunchilik terminlari, yuridik terminologiyada ham termin va atama tushunchalari borasida bahstlab fikr-mulohazalar mavjud. Terminologiya tilshunoslikning eng muhim va dolzarb sohasi hisoblanadi. Chunki ijtimoiy-siyosiy turmushimizdagi barcha yangilik va o'zgarishlar birinchi navbatda tilning terminologik leksikasida ifodalanadi [13:17].

“Shuni ta’kidlash joizki, atamashunoslikka oid tadqiqotlar keng ko’lamda olib borilayotganligiga qaramasdan, hozircha atamaning hamma e’tirof etgan tabiatini to’liq qamrab olgan ta’rif yo’q” [12:143].

Darhaqiqat, davlat tili haqidagi qonun yuridik terminologiya rivoji uchun shart-sharoit yaratib, ayniqsa qonun ishida tilga muhim talablar qo’yimoqda. Shu bois, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri o’zbek yuridik terminologiyasini puxta tuzish, uning tezaurusini yaratish, lug’at fondini tartibga solish, o’zbek yuridik terminlarini davlat standartlariga moslashtirishdan iboratdir. Chunki shu paytgacha yuridik terminlar bir tizimga, tartibga to’liq solinganicha yo’q. Masalan, birgina nafaqa so’zi rus tilidagi aliment, pensiya, posobiye ma’nolarida ishlatilgan:

aliment – aliment, nafaqa;

posobiye – nafaqa, yordam, ko’mak, madad;

pensiya – nafaqa.

Yoki aliment – nafaqa, aliment;

posobiye – yordam, nafaqa [9:71].

Bizningcha, bu uch termini o’zbek tilida nafaqa so’zi bilan atash maqsadga muvofiq emas. Chunki ular o’rtasida jiddiy farq bor. Ya’ni:

aliment – oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa bir a’zosi va a’zolarini moddiy ta’minlash uchun majburan to’lanadigan qonuniy mablag’;

pensiya – davlat tizimida faoliyat ko’rsatgan insonga yoki ma’lum bir yoshga yetgach, unga davlat tomonidan to’lanadigan mablag’;

posobiye – fuqaroning yoshidan qat’i nazar, davlat tomonidan (ma’lum sabablarga ko’ra) to’lanadigan yordam puli.

Bizning fikrimizcha: aliment – nafaqa; pensiya – pensiya; posobiye – yordam puli, deb yuritilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Shuningdek, “Maxsus leksika keng ma’noda kichik til matnlarini, umumiy til vositalarini ham o’z ichiga olgan holda shakllantiruvchi barcha leksik birliklarning yig’indisi sifatida tushuniladi” [10:35]. Rus tilshunoslaridan biri Yasyuk T.A. “terminologiya”, “nomenklatura”, “kasb-hunarga oid so’zlar”ni maxsus leksika tushunchasi ostiga birlashtiradi.

O’zbek tilining izohli lug’atida “nomenklatura”ga quyidagicha izoh beriladi:

“Nomenklatura – ishlab chiqarish, fan, texnika, san’at sohalaridan birida qo’llaniladigan nomlar, atamalar, terminlar va shu nomlar bilan ataluvchi narsalar ro’yxati, majmui” [11:509].

Bu yerda terminologiya ma’lum ma’noda nomenklatura tarkibiga kiritib qo’yilgan. Biz nomenklaturaga A.A.Reformatskiy tomonidan berilgan izohga qo’shilamiz:

“Nomenklatura – bu terminologiya bilan bog’liq tushunchalar tizimi to’g’risida emas, balki elementlar va tartibning tafovutlari to’g’risida ma’lumot berishi mumkin bo’lgan turli narsalarga tegishli nomlar yig’indisi bo’lsa, terminologiya muayyan fan tizimini ifoda etuvchi sohadir. Nomenklatura – yordamchi til vositasidir” [10:35-36].

Darhaqiqat, terminologiya tilning maxsus leksik qatlamidir. Uning lug’aviy obyektini nomenklaturaga nisbatan ancha kengdir. Umumiy tilshunoslikda, ayniqsa maxsus leksika hisoblangan professionalizm (kasb-hunar), argo va jargonlarni terminlar bilan almashtirib, ko’rsatish hollari uchraydi.

Ma'lumki, kasb-korga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklarning asosiy qismini har bir kasb-korda ishlatiladigan mazkur soha so'zlari tashkil etadi. Masalan, qishloq xo'jaligi bo'yicha maxsus so'zlar, maorif, hunarmandchilik, ipakchilik sohasidagi so'zlar va h.q. Shu jihatdan kasb-hunar so'zlari terminga o'xshab ketadi, ammo ular terminlarga nisbatan ma'no jihatdan kengdir, ya'ni kasb-hunar leksikasining aksariyat qismi umumiste'moldagi so'z bo'lib, ularning ishlatilish chegarasi terminlardagi kabi aniq emas: "zargar; "randa", "payvandlovchi", "ketmon", "igna", "kulol", "traktorchi" va b.

Lekin kasb-hunar leksikasi ichida tor ma'nodagi soha so'zlari ham bo'lishi mumkin, masalan: "irrigatsiya", "melioratsiya", "kultivatsiya". Demak, kasb-hunar leksikasi ichidagi ilmiylik xususiyatiga ega bo'lgan tor ma'noli so'zlar terminlar hisoblanadi. Shu bois, kasb-hunarga oid so'zlarni butkul terminologiya bilan aralashtirish to'g'ri emas.

Xuddi shunday, jargon va argo so'zlari ham termin hisoblanmaydi. Bunday so'zlar asosan so'zlashuv va badiiy nutqqa xosdir. Ularda ilmiylik xususiyati bo'lmaydi. Masalan, so'zlashuv nutqida mavjud "ment", "xit" (militsoner), "xitlanmoq" (oshkor bo'lmoq), "ko'k" (dollar), "qopqoq qilmoq" (qoyil qilmoq), "yopishtirmoq" (mag'lubiyatga uchratmoq) kabi so'z va birikmalar terminologiya qoidasiga muvofiq kelmaydi.

Tilning mahalliy ko'rinishi hisoblangan sheva so'zlari ham maxsus leksika hisoblanadi. Ular ham terminlardan farq qilib, adabiy tilga xos bo'lmaydi, balki muayyan bir sheva vakillari nutqida qo'llaniladi. Sheva so'zlari adabiy til so'zlaridan grammatik, lug'aviy, fonetik tomondan farq qiladi: pashsha-chivin, aka-oka, -da - (-ga).

Terminning semantik aloqadorligi nominativ qism (o'zak) tarkibida ham seziladi: agressiya, mafiya, terror. Demak, semantika doirasidagi termin bilan notermin o'rtasidagi chegara ko'pincha so'zning ma'nosi ichida bo'ladi: garov I – garov o'ynab yutqazmoq (umumiste'moldagi so'z); garov II – shartnoma yoki qonun asosida amalda yuzaga keladi (O'zR FK 264-modda).

Ko'rinib turibdiki, termin oddiy muomaladagi so'z kabi leksik ahamiyatgagina ega bo'la olmaydi, lekin terminning meyoriy belgilaridan biri uning ekspressiv-stilistik bo'yoqlaridan xoli ekanligidir. Shu bilan birgalikda, ko'pgina yuridik terminlarda tuyg'uga yo'g'rilgan komponentlar uchraydiki, ular salbiy ohang kasb etadi. Masalan: qotil, jinoyatchi, qalloblik, firibgarlik, terror, o'g'ri va b. Mazkur so'zlar boshqa so'zlarga aloqasi bo'lmagan holatlarda, ya'ni kontekstsiz salbiy ma'no ifodalaydi.

Lekin ba'zi terminlashgan yuridik so'zlar borki, ular shu sohada o'zining neytrallik xususiyatini yo'qotadi. Masalan, sherik va ishtirokchi so'zlari huquqda ijobiydan ko'ra salbiy ma'noda tushuniladi. "Ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi" (JK. 27-modda), "Jinoyat ishtirokchilarining turlari" (JK. 28-modda), "Ishtirokchilikning shakllari" (JK. 29-modda).

Terminologiyada tilning o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanmasdan, o'zga tillardan o'zlashgan terminlarni o'rinsiz ishlatish holatlari ham mavjud. Masalan, guruh o'rniga grupp, matn o'rniga tekst, ma'ruza o'rniga leksiya, muallif o'rniga avtor kabi.

So'z – leksikada o'rganiladi va leksikologiyaning tekshirish obyekti hisoblanadi. Termin – terminologik leksikaga oid so'z sifatida terminologiyada o'rganiladi va boshqalar.

So'z – ko'chma ma'noda ishlatiladi; termin va atama – ko'chma ma'noda ishlatilmaydi. Ularning o'ziga xos xususiyati shuki, qo'llanilish doirasi chegaralangan va aniq bir ma'noni

anglatadi. Ba'zan bo'ri, tulki quyon kabi yovvoyi hayvonlarning nomlari ham so'z, ham atama bo'lgani holda, ularning ko'chma ma'noda kelishi atama hisoblanmaydi [5:41].

Demak, har qanday atama so'z, lekin har qanday so'z atama emas. Masalan, atama – termin – istiloh so'zlaridan birgina atama so'zi atama hisoblanadi. Shuningdek, talaba – student – tolib so'zlaridan faqatgina talaba so'zi atamadir. Xuddi shunday shalkdosh so'zlar – omonimlar, ma'nodosh so'zlar – sinonimlar, zid ma'noli so'zlar – antonimlar so'zlarining birinchilari atamalar hisoblanadi. Ikkinchilari tildagi terminlardir.

Tilimizda atamalarning qo'shma va birikmali turlari ham bor. Masalan, ish yuritish, gultojixo'roz, oliy ta'lim, maishiy xizmat, yetakchi mutaxassis, qalam haqi singari. Shuningdek, tilda lahjalar va shevalardan so'zlar olish yo'li bilan, ya'ni tilning ichki imkoniyatlari asosida ham atamalar yuzaga keladi: bo'la, umoch, urt, qo'qim, yelvizak, quyqa, nuri, o'ngir kabi.

Avvalo, tildagi terminlarning o'zbekcha muqobillarini amalda qo'llash (agar mavjud bo'lsa), ikkinchidan, xorijiy terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish (agar mavjud bo'lmasa) va barcha tegishli sohalarda bir xilda ishlatilishini ta'minlash bugungi kun talabidir. Masalan, imlo – orfografiya, bekat – ostanovka, imtihon – ekzamen, sinov – zachyot, bo'lim – seksiya, tahlil – analiz, devonxona – kanselyariya, shevashunoslik – dialektologiya kabi so'zlarning birinchilarini tilimizda keng ko'lamda qo'llash maqsadga muvofiq.

Xulosa:

1. Tilimizning leksik qatlami tabiiy ravishda yangi so'z va terminlar hisobiga boyib, rivojlanib boradi. Bunday rivojlanish, avvalo tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida, ikkinchidan xorijiy tillardan so'z va terminlar o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

2. Har bir fan yoki sohaning rivojlanish darajasi mazkur soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi yoki tartibga solinganligi bilan belgilanadi. Biror sohada foydalaniladigan terminning ma'nosi va ifoda shakli aniq bo'lmas ekan, shu sohada turli noaniqliklar va muammolar kelib chiqaveradi. Shu ma'noda har bir sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi uning barqaror ilmiy terminologiyaga ega ekanligi bilan ma'lum darajada bog'liq bo'ladi.

3. Tildagi terminlar, so'zlar va atamalar o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, ular til taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanadi. Bunda oddiy so'z faollashib, atamaga, atama esa ilmiy terminga aylanishi mumkin. Yoki aksincha, ilmiy terminlar, faol atamlar passivlashib, eskirib qolishi va umumiste'moldan chiqib ketishi va so'z zaxirasiga aylanishi, tabiiy holdir.

4. Tilimizdagi termin, so'z va atamalarning yuqorida ta'kidlangan o'ziga xos xususiyatlarini bilish, ularni o'zaro farqlash va o'z o'rnida ishlatish, ayni paytda, tildagi turli g'alizliklar hamda muammolarning oldini oladi, fikrning to'g'riligi va mantiqiylikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Даниленко В.П. Русская терминология. М., 1977
2. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва: 1961
3. Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 1986
4. Mirahmedova Z. O'zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: "Fan", 2010
5. Rajabov N. Ona tili. – Toshkent: "Fan", 1999



6. Rasulov R. Suyunov B. Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Fan", 2010
7. Saidov O'R. O'zbek tili ish yuritish terminlari tizimi: semantikasi va leksikografik talqini. Monografiya. – T.: "Sarbon LLS" – 2024
8. Suyunov B.T. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Monografiya. – T.: "Impress media" – 2022
9. Yuridik atamalar va iboralar lug'ati. – Toshkent: "Adolat", 1993
10. Яцюк Т.А. Терминология и дискурс права. – Ташкент: "Наука", 1992
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: 1981
12. Qonun va til. – Toshkent: 1997
13. G'ulomova G. Qonunchilik va o'zbek yuridik terminologiyasi. Toshkent: TDYuI – 2002